



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yaxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov**
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E. Usarov**
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O. Ximmataliyev**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I. Mahkamov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B. Qorayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O. Ernazarova**
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.N. Xodjamkulov**
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O. Raxmanova**
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У. Қодирова**
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksизликни таъминлашнинг педагогик-психологик механизmlari
- 53 **G.S. Abdullayeva**
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- 59 **P. Мусумонов**
Uzluksiz ta'lim muassasalarida ўқув жараёнига нисбатан интизомсизликка оид педагогик ва психологик қарашлар
- 65 **I. Qodirov**
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F. Ravshanov**
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **У.Ю. Файзуева**
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей с ОВЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh.A. Abdujalilova**
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishida uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J. Eshnaev**
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh.X. Kobilova**
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F. Qurbonova**
Uzluksiz ta'limda jaraonida zamonaviy yodashuvlar
- 104 **A.R. Raxmonov**
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobilli tizimidan foydalanish
- 110 **I.O. Sayfullayeva**
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S. Ishmatova**
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A. Egamberdiyeva**
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviyligini ta'minlash omillari



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH

U.I. MAHKAMOV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Ushbu maqolada tarbiyaviy ishlarni qanday tashkil etish, tarbiya tushunchasi mazmuni, uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning shakllari, vositalari, ilmiy manbalari shuningdek tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy asoslari yoritilgan.

Tayanch so'zlar. *Ta'lim, tarbiya, shaxs, predmet, obyekt, mahorat, pedagogika, bilim, metod, malaka, ko'nikma, kompetensiya, muloqot madaniyati*

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ham tarbiyaga shunday ta'rif berilgan: «Tarbiya aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon» deb ifodalangan. Demak uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyani takomillashtirish asosida inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish, milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish, o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil etish, bolalarning yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya aqliy va ahloqiy jarayonning natijasi hisoblanib aniq ahamiyatga ega bo'lgan va mavjud bilimlar yig'indisi sifatida shaxs kamoloti va tarbiyasi uchun xizmat qiladi. Buning natijasida tarbiya jarayonida o'quvchi yoshlarda fidokorlik, tenglik, vijdoniylik, mehr-muhabbat sadoqat kabi milliy qadriyatlarga oid tushunchalar shakllanadi. Shuningdek, insonlar o'rtasidagi aloqani aks ettirish vazifalarni tasdiqlash, idrok etish va aql orqali xayotga joriy etish rivojlantiriladi.

Tarbiya jarayonining rivojlanishida bir necha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Hozirda mavjud bo'lgan tarbiya jarayonining bosqichlarga bo'linishida inson rivojlanishining dastlabki bosqichi nazarda tutiladi. Bunda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaning amaliy faoliyatdagi harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bu intilish bola hayotining dastlabki yilining oxiriga kelib namoyon bo'la boshlaydi. Bunda alohida narsalarni bilgan holda ikki yoshida ma'lum amaliy masalalarni yecha oladi. Ya'ni shunday, bir yoshu uch oylik davrida bola narsalar solingan og'ir qutini joyidan olib surish uchun harakatni amalga oshiradi.



Bola tarbiyasi rivojlanishining keyingi bosqichi nutqni egallab borishi bilan bog'liq. Ushbu jarayonda bola bilib olgan so'zlar unga umumlashtirishni amalga oshirishda tayanch bo'ladi. Ular tez orada bola uchun umumiy ma'noga ega bo'lib, bir jismdan ikkinchisiga oson ko'chiriladi. Lekin ko'pchilik hollarda jism va hodisalarning qandaydir alohida belgilari bola o'sha jismlarga nisbatan qo'llaydigan birinchi so'zlar ma'nosini bildiradi, xuddi shunday, ko'pincha «olma» so'zi bolalar tomonidan barcha dumaloq shakldagi yoki qizil rangdagi jismlar bilan solishtiriladi.

Tarbiya jarayonining navbatdagi bosqichida bola bir xildagi jismni bir necha so'zlar bilan atashi mumkin. Bu hodisa bolada ikki yosh atrofida kuzatiladi va solishtirish tafakkur operatsiyasining shakllanishidan dalolat beradi. Bayon etilgan ma'lumotlar asosida maktabgacha yoshdagi bola tarbiyasining bir nechta ahamiyatli bo'lgan xususiyatlarini aniqlash mumkin. Xuddi shunday, bola tarbiyasining ahamiyatga ega bo'lgan xususiyati bu bolaning birinchi harakat bilan bog'liqligidan iborat. Bola harakatlanib, fikr yuritadi. Bola tarbiyasiga hos bo'lgan xususiyatlar shakllanadi.

Bola maktab yoshiga yetganida unda fikrlash imkoniyatlarining taraqqiyoti kuzatiladi. Bu hodisa yosh o'zgarishlari bilan birga, birinchi navbatda, maktabda ta'lim olishda bola yechishi zarur bo'lgan intellektual masalalar bilan ham bog'liqdir. Tushunchalar hosil bo'lish jarayonida fikrlash operatsiyalarining taraqqiyoti sodir bo'ladi. Maktab bolani tahlil qilishga, sentezlashga, umumlashtirishga o'rgatadi, induksiya va deduksiyani rivojlantiradi. Maktabni tugatgandan unda tafakkurni rivojlantirish imkoniyati saqlanib qoladi. Lekin bunday rivojlanish dinamikasi, yo'nalganligi uning faqat o'zigagina bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunda tarbiya jarayonini rivojlantirish maqsadiga alohida e'tibor qaratish, amaliyotda uni rivojlantirishning yo'nalishlari mavjud. Ushbu jarayonda inson tafakkuri rivojlanadi. O'z navbatida, tajribalarni o'rganish muammolari va aqlning rivojlanish imkoniyati bilan bog'liq. Bunda sadoqat, madaniyat, ong, hissiyot, bilim faoliyati, fikrlash, ichki bilim, hissiy jarayonlari va xotira, bilogik va ijtimoiy harakat, tushuncha, xotira, tasvir, idrok yoki hissiyot kabi xususiyatlar kamol topadi.

Tarbiya jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar tarbiya shakli dalillar asosida muammo haqida xulosalar chiqaradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni xususiy xulosalardan umumiy xulosalarni keltirib chiqarish, ayrim dalillar va xodisalarni o'rganish asosida umumiy qoidalar va qonunlar o'rnatish usuli. Umumiy mulohazalardan xususiy mulohazalar keltirib chiqarish, tarbiya tamoyillari asosida ayrim dalillar va xodisalarni bilish amalga oshiriladi.



Tarbiya jarayonini inson o'ziga xos aqliy operatsiyalar vositasida o'rganadi. Asosiy fikrlarni analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiya va umumlashtirish, aniqlashtirish, tasniflash va tizimlashtirish vazifalarini bajaradi. Ushbu jarayonda yaxlit fikr yuritish, uni qo'shimcha harakatlar, munosabatlarga ajratish, bevosita shaxs faoliyatida amaliy va nazariy jihatdan amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi biror shaxsni o'rganishda tahlil qilish jarayonlarini amalga oshiradi.

O'quvchi bilimlarini birlashtirish, so'z bilan ifodalash yagona tushunchalar asosida namoyon etiladi. Uzluksiz ta'lim jarayonida mas'uliyatlilik madaniyatini rivojlantirishda so'z faqatgina talabaning emas, balki har bir insonning muhim xususiyati hisoblanadi. Ushbu jarayonlar tahlil natijasida amalga oshiriladi. Buning natijasida ta'lim- tarbiya, shaxs va boshqa tushunchalar yuzaga keladi .

Tarbiya jarayonida shaxsni o'rganishda – umumlashtirish bilimlarni o'zlashtirish har qanday vaziyatga fikr bildirish, o'quv faoliyatida aniqlashtirish – umumiy nazariy bilimlarni, tasdiqlovchi misol, rasm, aniq dalilni keltirish, tizimlashtirish, tasniflash, ularni bir-biriga o'xshashlik yoki farqlari asosida guruxlarga bo'lish, o'zlashtirish, intizom, jamoat ishlaridagi faollik kabilarga oid ishlar amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayonida muammoni hal etish bilan bog'liq jarayonda yuzaga kelgan turli muammoli vaziyatlarning oldini olish vazifasini o'tash, sub'ektning aqliy faolligi yordamida ularni yengib o'tish kabi ma'lum bir to'siqlar, qiyinchiliklarning yuzaga kelishini bartaraf etish. Uning yangi jihatlarini ajratish, yangi g'oyalar bilan namoyon qilish kabi jihatlarini takomillashtiradi.

Tarbiya jarayonining mazmundorligi deganda talaba tevarak atrofdagi moddiy va ma'naviy voqelik to'g'risidagi mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muommolar, tushunchalarning ular ongida shakllanishi nazarda tutiladi.

Tarbiya jarayoni o'quvchi yoshlarda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatleri ularning o'zaro bog'lanishlari, munosabatlarga oid ma'lumotlarni o'rganish, u yoki bu shaxsning bilimlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayoni o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatleri bilan muntazam ravishda talabalardagi ahloqiy madaniyatga oid narsa va hodisalarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishda, ya'ni hozirgi davr haqida va kelajak to'g'risida mulohazalar, muommolar va tushunchalarni qamrab olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu jarayonda talabaning fikr doirasi, keng bilim saviyasi, yuqori serg'oya ijodiy izlanishi, aql zakovati, bilimdon yoki tafakkuri kengligidan dalolat beradi.



Tarbiya jarayoni o'zining ma'no-mazmuni jihatidan va tafakkurni mustaqilligi deganda talabaning shaxsiy tashabbusi o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish natijalarni ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat qobiliyatini rivojlantiradi.

Tarbiya jarayonida aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda talaba o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishni, shularning barchasini amalga oshirish, nihoyasiga yetkazish yechimni qidirish usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aql bilan intilishi, ularga taalluqli qo'shimchalar kiritishdan iborat bosqichlarining namoyon bo'lishi nazarda tutiladi. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni o'z o'mida aniq qo'llash jarayonlarida ifodalanadi.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi muammo va vaziflarni tayyor usul va vositalarga tayangan holda talabalarning tafakkurini rivojlantirish asosida aql zakovatli inson bo'lish hisoblanadi. Kaltabin, aqldan erinchoq, behafsala odam bo'lib, nomustaqillik illati rivojlanishiga to'siq bo'lish ehtimoldan holi emas.

Tarbiya jarayoni innovatsion fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'langan bo'lib, talaba tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsifnomalar yaratish hamda nazariy va amaliy vazifalarni hal qilish, bajarilgan ish ko'lami va sifatiga oqilona baho berish kabilar tarbiya mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tarbiya deganda muommoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasining mazkur jarayonida masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritish, fikr yuritish faoliyatini takomillashtirish kabilar samaradorlikka erishish imkoniyatini beradi. Fikrning operativ jihatdan tezkorlik bilan o'zgartirishda va to'g'ri yo'nalishga yo'llab yuborishda talabaning g'oyasini yoritishda o'z-o'zicha birdaniga xatosini anglab to'g'ri javob berishda mazkur fikrlarni, axborotlarni talabalariga xato va kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi.

Tarbiyaning natijasi qo'yilgan savolga va muommoga to'liq javob berishda bir qator omillarga bog'liq. Tarbiya uchun zarur materialni tez yodga tushira olish, muvaffaqiyatga erishish, turli his-tuyg'ularning mavjudligiga, talabaning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida talabaning bilim



saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda ma'lum fursat ichida o'z samarasini ko'rsatadi.

Innovatsion fikrlar talabalar va o'quvchilarga zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallangan bilimlarini vaqtincha unutib o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz salbiy emotsiyalar uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Ya'ni fikrni bayon qilishda vujudga kelgan, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imtihonda hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib, funksiyasi jadallashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. Shuning uchun o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaning individual xususiyatlari va rivojlanishi omillaridan biri o'quvchi-yoshlarda fikrlash madaniyatini shakllantirish va ularda sinchkovlik, tafakkur kengligi, chuqurligi va mustaqillik, fikrning egiluvchanligi, aqlning sertashabbusligi va tanqidiyligi, mantiqiylik, isbotlanganlik va ijodkorlik kabi sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

Aqlning pishiqligi – u yoki bu hodisani ahamiyatga oid munosabatlarda har tomonlama bilishga intilish, har bir savolni yaxlitligicha, shu bilan birga zarur bo'lgan xususiyatlarni chetda qoldirmay qamrab olish, tarbiya asosida dunyoqarash va har bir hodisani boshqa hodisalar bilan turli aloqalarda ko'rib chiqish, murakkab savollar mohiyatiga kirib borish, asosiy holatni ikkinchi darajalardan, zaruriyatni tasodifdan ajratish malakasini rivojlantirish hisoblanadi. Bunda odam mayda-chuydalarga e'tibor qaratib, asosiysini ko'rmaydi. Tarbiyaning mustaqilligi insonning yangi vazifalarni ilgari surishi va boshqalarning yordamidan foydalanmasdan ularning yechimini topish malakasi bilan xarakterlanadi. Fikrning egiluvchanligi masalalarni yechishda avvaldan qo'llanilib kelayotgan usullarning ta'siridan holi bo'lishda, sharoit o'zgarganda harakatlarni tezda o'zgartirish malakasida ifodalanadi. Tarbiya jarayoni insonning yangi vaziyatda o'zini yo'qotib qo'ymaslik, o'ylab olgan holda to'g'ri qaror qabul qilish, aqlning sertashabbusligini insonning o'ylamasdan masalaning bir tomonini ushlab olib, qaror qilishga shoshishi, yetarlicha o'ylanmagan javoblar bildirishida ifodalanadigan shoshqaloqlikdan farqlash lozim. Aqliy madaniyatni shakllantirishda va boshqalarning fikrlarini obektiv baholashi har bir inson ilgari surilayotgan g'oyalar



va xulosalarni izchillik bilan har tomonlama tekshirib chiqish malakasini egallash jarayoni hisoblanadi. Uning ahamiyatli tomonlarini hisobga olgan holda mulohazalarning qat'iy izchilligiga rioya qilish, zarur vaqtda xulosalarning to'g'riligini tasdiqlovchi dalillar, qonuniyatlardan foydalanish tarbiyaga oid ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosida uning mohiyatida nisbatan xolis bo'lmagan munosabat, hissiy taassurotning oshirib yuborilishiga oid baholarning berilganlik darajalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020.23.09.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild-Toshkent. 2005. 666-b.
3. B.S.Axmadaliev,O'.N.Farmonov «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» O'quv qo'llanma.Toshkent: Book trade 2022.3-11b.
4. R.Mavlonova «Tarbiyaviy ish metodikasi» darslik. T. 2014.